

BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI BOLALARDA ESTETIKANI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Muhammadaliyeva Nodirabegim Mirzarahmon qizi

UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

“Boshlang'ich ta'lim” kunduzgi

101-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10417866>

Annotatsiya: Maqolada estetik tarbiya va uning inson hayotidagi ahamiyati, uning ijtimoiy hayotimizda tutgan o'rni psixologik va pedagogik tasnifi asosiy tushunchalar berilgan. Boshlang'ich ta'limdagi bolalarda eestetikni rivojlantirish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Estetika, estetik tarbiya, estetik his, oila, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, badiiy, tasviriy, surdopedagog, nutq, idrok.

Estetik hislar ham yuksak axloqiy hislardan hisoblanadi. Estetik his deganda biz go'zallikni idrok qilish, go'zallikdan zavqlanish va go'zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo'lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. Masalan, bahor faslidagi tog' manzaralari baland qorli qoyalari uzoqlardan mag'rur turishlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug'diradi. Yomg'irdan so'ng turli rangda jilolanib turuvchi kamalak, gulzorlar yoki kapalak, xuddi dengizdek ko'z ilg'amaydigan ko'm- ko'k paxtazorlar uzoqlarda chiroyli bo'lib ko'rinib turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko'tarinki ruh tug'diradi. Odamlar hayotning turli faktlariga va ularning san'atini aks ettirishiga qandaydir go'zallik yoki xunuklik fojiali yoki kulguli, oliyanoblik va razillik, nafis yoki dag'al hodisalar sifatida munosabatda bo'ladilar. Bu hislar tegishli baholarda estetik didlarda namoyon bo'ladi va o'ziga xos badiiy lazzatlanish holatida kechiriladi. Estetik hissiyotlarning manbalari juda ko'p va xilma-xildir. Masalan, tabiat manzaralaridan lazzatlanishdan tashqari tasviriy san'at asarlari, badiiy-adabiy asarlar, musiqa va haykaltaroshlik, arxitektura va me'morchilik ishlari ham odamda estetik hisni tug'diradi. Bundan tashqari odamlarning o'zaro bir- birlari bilan bo'lgan munosabat va muomalalari ham estetik hissiyotlarning manbalari bo'la oladi. Odamning kiyinishi, uyining tutishi, qanday jihozlanish, boshqalar bilan muomalasi ham estetik hislarimizning manbai bo'la oladi» Masalan, dag'al gaplashadigan kishidan odam nafratlanadi, aksincha muomalali, gapni o'rinli va madaniyatli qilib gapiradigan kishidan odam zavqlanadi. Shunday odamlarga taqlid qilgisi keladi. Umuman odamning estetik hissiyotlari ko'p manbalarga ega bo'lgan murakkab hissiyotlardandir.

Estetik didni shakllantirib borish, uni turli bachkanalik va kamchiliklarni forig' etish “Estetik tarbiya” ning vazifasi hisoblanadi. Estetik tarbiya -lotincha “estezio” “go'zallikni his etaman” degan ma'noni anglatib-o'quvchilarni voqe'lik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muxabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Estetik tarbiya insonda go'zallikni xis qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, ijtimoiy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'likdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muxabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiyaning mohiyati shundan iboratki, u go'zallikka

bo'lgan munosabatni qaror toptiradi. Go'zallikka bo'lgan tuyg'uni rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Mehnat faoliyatida paydo bo'lgan go'zallik butun tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib bordi, u mehnat faoliyatining o'ziga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Mehnat jarayonida tayyorlangan xar bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funksiyasi, zarurligi insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidagina emas, balki uning qanchalik go'zalligi bilan ham baholanadi. Go'zallik bu hayotning o'zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir. Estetik bilimlari aniq tarbiyaviy ishlar-tanlov, viktorina, bayram, ko'rgazma va xokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar. Kichik yoshda "barcha bolalar istesno'siz rasm soluvchilardir" (K.D.Ushinskiy), "har bir bola - shoir" (V..Suxomlinskiy).

Estetik tarbiya (nafosat) — shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda estetik faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Estetik tarbiya shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Estetik tarbiyaning vositalari o'quvchilarning go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi.

Badiiy adabiyot estetik tarbiyada cheksiz imkoniyatlarga ega. U o'quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o'rgatadi. Olam va inson go'zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g'oyalarni o'zida aks ettirgan san'at asarlari insonlarni go'zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. Aksincha, g'oyaviy jihatdan saviyasi past asarlar o'quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go'zallikdan chalg'itadi, go'zallikni sevishga bo'lgan intilishlarini susaytiradi, didini pasaytiradi.

Estetikaning birinchi maktabi-oila. U oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uy-jihozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom- sarishtalik, tozalik hamda pokizalik bolalarda nafosatni to'g'ri anglashga o'rgatuvchi ilk qadam hisoblanadi. Maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a'lochilar burchagi, tadbirlar, bayram tanlovlari, kabilarning barchasi bevosita bolalarda go'zallikni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi. Turmush go'zalligining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinf xonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasi, a'lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot nafosat tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega. U o'quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o'rgatadi. O'quvchilarga o'zbek va chet el adabiyoti haqida ko'proq ma'lumot beriladi. O'quvchilar she'rlar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi namunalari — maqol, matal, ertak, doston, qo'shiq, qissa va romanlarni qanchalik ko'p o'qisa ularda go'zallikka bo'lgan intilish shunchalik kuchli bo'ladi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish tahlil qilish o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg'ulari va til boyligini takomillashtiradi. Shuningdek, adabiyot darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni ta'minlaydi. O'quvchilar nasriy asarlar, she'rlardan parchalar yod oladilar, buning natijasida o'quvchilarning badiiy nutq madaniyati ham shakllanadi.

O'quvchilarning go'zallik bilan bevosita muloqotda bo'lishlari ularga ko'proq hissiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish

jarayonida o'quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo'lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'moriy asarlar namunalari bilan o'quvchilarni tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziqlar, rang va kolorit uyg'unligini idrok etish tuyg'ulariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilar e'tiboriga ezgu g'oyalarni tarannum etuvchi musiqiy asarlarning havola etilishi, ulardan olinayotgan taassurotlar bilan o'rtoqlashish ularda musiqiy ohang, ritm, tovushlarning ifodaviyligi va sur'atini his etish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Adabiy asarlar esa o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

O'quvchilarda estetikani shakllantirish. Nafosat ongi ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida o'quvchilarni turli nazariya, qarashlar mohiyati bilan tanishtirish, ular o'rtasida nafosat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish hisobiga shakllantiriladi. Estetik ong asosini nafosat idroki tashkil etadi. Estetika idroki — bu ijtimoiy voqe'lik, buyum va hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iboratdir: o'quvchilarda nafosat his-tuvg'usi, fikr-mulohaza, didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, go'zallikni sevishga bo'lgan hayotiy ehtiyojini o'stirishdan iborat. Insonlar go'zallikni idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lganliklari uchun hayajonlanish, qayg'urish, darg'azab bo'lish, quvonish, zavqlanish kabi his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar. Bundan tashqari kishi yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan obrazni yoki tabiat, hayotdagi go'zal hodisani idrok qilganidan zavq-shavqqa to'ladi. O'quvchilarda kuzatish madaniyatini tarbiyalash ularning go'zallikka bo'lgan intilishlarini o'stirish uchun juda muhim. Ko'p hollarda bolalar biror narsaga qarab turadilar-u, uning o'zini ko'rmaydilar, quloq soladilar, eshitmaydilar. Shuning uchun ularga tabiatda, o'rmonda tog'lar va cho'llarda turli tovushlarni farq qilishni o'rgatish lozim. Yuqori sinf o'quvchilariga go'zallik, xunuklik, nafosat ideali singari tushunchalarni yoritib berish juda muhim, zero, bu tushunchalarsiz go'zallikka nisbatan munosabat, voqe'lik va borliqqa go'zal munosabat tizimini tarkib toptirib bo'lmaydi. Nafosat haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib olish, ajoyib san'at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o'z fikr-mulohazalarining to'g'ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi. Yuqori sinf o'quvchilari hayot va san'atda go'zallik, xunuklik, zavq-shavqning xilma-xil turlariga duch keladilar. Ular g'oyaviy yo'nalishi va mazmuni jihatdan turlicha bo'lgan badiiy hamda san'at asarlarini o'qiydilar, tomosha qiladilar va tinglaydilar. Ijtimoiy hayot va san'atga oid hodisalarning mohiyatini to'g'ri tushunishda o'quvchilarga go'zallik va uni sevish mavzusidagi darslar, shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan xilma xil mashg'ulotlar yordam beradi. Nafosat didi o'z tabiatiga ko'ra shaxsga xos bo'lgan psixologik hodisadir. Ammo shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo'lganligi uchun u go'zallikni baholash mezonlarini puxta o'zlashtira oladi. Nafosat didi shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'yektiv nafosat o'lchovi bo'lib, go'zallik, xunuklik va tubanlikka baho berishda sub'yektiv yondashuvni ifodalaydi. Estetik didni shakllantirishda maktab o'quvchilari o'rtasida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi.

Bolalarda estetikani tarbiyalash juda muhim va maroqlidir. Ularda yorqin va turli ranglarga qiziqishning kuchliligi, bezatish va bo'yashga bo'lgan intilishlarini devorlar hatto buyum,

mebellarga chizib ko'rishidan bilinadi. Ularni bu qiziqishlarini to'g'ri baholash va yo'naltirish ularning yashirin iste'dodlarini namoyon etishga imkon beradi. Estetik tarbiya shunday kuchga egaki, san'at asarlaridagi (badiiy tasviriy) tasvirlangan syujet, hodisa, idrok etishning tasavvurida, xayolida, kechinmalarda estetik hissiyotidan qayta ishlanib, ularning o'z tajribasiga aylanadi.

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida ularni estetik didini tarbiyalashda turli metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida didaktik o'yinlar orqali bu maqsadga erishish mumkin, albatta innavatsion - mutlaqo yangi samarali usullardan foydalanish talab etiladi. Darslarni yoki mashg'ulotlarni butunlay o'zgacha usulda tashkillashtirish, har bitta darsga alohida yondashish ta'lim tarbiyaga qo'yilgan vazifalarni to'liq amalga oshirishga yordam beradi. Maxsus yordamchi maktab o'quvchilari uchun innavatsion usullar muhim sanaladi. Chunki bunday o'quvchilarning ta'lim olishida va tarbiyalanishida asosiy muammo bu qiziqishning yo'qligidir. Ularga shunchaki ko'rsatish yoki so'zlab tushuntirish mumkin emas. Misol uchun ona tili chiroyli yozuvga o'rgatishni tushuntirishlar bilan anglatish mushkul, hatto yillar ham kamlik qilishi mumkin. Estetik zavq olishni tarbiyalash orqali esa bu ish biroz yengillashadi. Ularning mayda qo'l matorikasini rivojlantirish uchun tikish, haykaltaroshlik, tasviriy san'at va qo'l mehnati mashg'ulotlarini o'yin tarzida erkin bajarishga imkon berish orqali erishish mumkin.

References:

1. Abdurahmonov F., Davletshin M. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak. T.: 1996.
2. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» tuzuvchi M. Mahmudov.T.: Xalq me'rosi, 1993.
3. Adizova S. O'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. T.: 2002.
4. Адизова Т., Усмонова Е. Психологические трудности в обучении младших школьников. Т.: 1995.
5. Axmedjanov E.R. Psixologiya testi. 1996.